

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ETISHTIRILGAN PILLALARNING TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI TAXLILI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1053>

Oserbayeva Sarbinaz Rustemovna

assistent, qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (phd) Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti

Madreymova Ziyada Jalgasbaevna

magistrant, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida yetishtirilgan pillalarning texnologik xususiyatlari, ularning sifat ko'rsatkichlari hamda ipak mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Hududning iqlim sharoiti, tut bargi sifati, ipak qurti duragaylari va boqish texnologiyasining pilla sifatiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, agrotexnik tadbirlarni to'g'ri tashkil etish orqali yuqori sifatli pilla yetishtirish mumkinligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *pillachilik, ipak qurti, pilla, ipakchanlik, texnologik xususiyat, duragay, qobiq og'irligi, ipak tolasi.*

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida pillachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy ipak mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi yuqori sifatli pilla yetishtirishni talab etmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiiy-iqlim sharoiti bilan boshqa hududlardan farq qiladi. Hududda yoz oylarining issiq va quruq kelishi, havo namligining pastligi hamda ayrim yerlarda tuproq sho'rlanishining yuqori bo'lishi ipak qurti parvarishi va pilla sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli Qoraqalpog'iston sharoitida yetishtirilgan pillalarning texnologik xususiyatlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamiz olimlari tomonidan ipak qurti zotlari va duragaylarining biologik hamda xo'jalik foydali belgilarini takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda pilla og'irligi, qobiq og'irligi, ipakchanlik darajasi va ipak tolasining texnologik sifat ko'rsatkichlari seleksiya ishlarining asosiy mezonlari sifatida e'tirof etilgan. Tadqiqotchilar pilla qobig'i ulushining ortishi xom ipak chiqish miqdorini oshirishi hamda iqtisodiy samaradorlikni yaxshilashini ta'kidlaydilar.

[1] lar tut ipak qurti pillalarining kalibri va texnologik belgilari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borganlar va bir xil vaznli turli kalibrga ega pillalarni tahlil qilinganda, ipak tolasining umumiy uzunligi bo'yicha III-guruh mayda kalibrli pillalar yuqori natijani namoyon etgan (1349 m).

Tirik pillarni turli sublimatsiyali rejimlarda yigirib texnologik parametrlarini aniqlash bo'yicha o'z tadqiqot ishlarida [2] lar 2200S da 5 daqiqa davomida NaOH suvli eritmasida pillalar bug'langanda, ipak xomashyosining eng yaxshi yigirilish unumdorligi boshqa variantlardan mos ravishda 2,5% ga yuqori ekanligi aniqlangan.

O'zbekiston sharoitida yaratilgan Ipakchi-1, Ipakchi-2, Musaffo, Marvarid kabi zot va duragaylar yuqori mahsuldorligi hamda texnologik ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Ushbu duragaylarda pilla og'irligi va qobiq ulushining yuqoriligi kuzatilgan bo'lib, ular respublikaning turli hududlarida muvaffaqiyatli boqib kelinmoqda. Mahalliy duragaylar bilan bir qatorda xorijdan keltirilgan, ayniqsa Xitoy seleksiyasiga mansub duragaylar ham yuqori biologik va texnologik

ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlangan. Xitoy duragaylari yirik pillaliligi, qobiq og'irligining yuqoriligi va ipakchanlik darajasining katta bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ayrim tadqiqotlarda ushbu duragaylarning pilla og'irligi mahalliy duragaylarga nisbatan yuqori ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, ularning mahsuldorligi va sifat ko'rsatkichlari hududning ekologik hamda iqlim sharoitlariga bog'liq holda o'zgarishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi keskin kontinental iqlimga ega hudud hisoblanadi. Yoz oylarida havo haroratining yuqori bo'lishi, namlikning pastligi va ayrim hududlarda tuproq sho'rlanishining mavjudligi ipak qurti rivojlanishi hamda pilla hosil bo'lish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Olimlarning fikricha, bunday sharoitlarda ipak qurtlarini sifatli tut bargi bilan oziqlantirish va optimal mikroiklim yaratish yuqori sifatli pilla olishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida yetishtirilgan pillalarning texnologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda pilla sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot davomida hududda keng boqilayotgan ipak qurti duragaylari pillalari o'rganildi. Pillalarning:

umumiy og'irligi;

qobiq og'irligi;

ipakchanlik darajasi;

qobiq qalinligi;

pishiqligi;

ipak tolasi uzluksizligi kabi ko'rsatkichlari laboratoriya usullarida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

Qoraqalpog'iston Respublikasining quruq va issiq iqlim sharoiti pillaning ayrim texnologik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir qiladi. Tut bargi sifati ham pilla ko'rsatkichlariga muhim ta'sir ko'rsatadi. Oziq moddalarga boy barglar bilan boqilgan qurtlarda pilla og'irligi yuqori, qobiq qalinligi yaxshi, ipakchanlik darajasi yuqori bo'ldi.

Tahlillar davomida ayrim duragaylarda ipakchanlik 20–24 % atrofida ekanligi aniqlandi. Bu esa hudud sharoitida ham yuqori sifatli pilla yetishtirish mumkinligini ko'rsatadi. Pillaning texnologik sifati ko'p jihatdan qobiqning fizik-mexanik xususiyatlariga bog'liq. Qobiq qalin va pishiq bo'lgan pillalarda ipak tolasi uzluksizligi yuqori bo'lib, qayta ishlash jarayonida ipak chiqishi ko'payadi. Bundan tashqari, pillalarni o'z vaqtida quritish va saqlash texnologiyalariga amal qilinmaganda sifat ko'rsatkichlari pasayishi kuzatildi. Ayniqsa, namlikning keskin kamayishi ipak tolalarining mo'rtlashishiga olib keladi.

Ko'rsatkich	Xitoy duragayi	Ipakchi-1x Ipakchi-2
O'rtacha pilla og'irligi, g	2,00	1,9
Qobiq og'irligi, g	0,46	0,42
Ipakchanlik, %	23	22,7
Nuqsonli pilla, %	3,5	4,2

Tadqiqot ishlarimiz davomida, Xitoy duragayida pilla og'irligi va qobiq og'irligi mahalliy Ipakchi-1 × Ipakchi-2 duragayiga nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Xitoy duragayida ipakchanlik 23,0 % ni tashkil etib, bu ko'rsatkich Ipakchi-1 × Ipakchi-2 duragayidan 0,3 % yuqori ekanligi aniqlandi. Natijalar Xitoy duragayining Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida yuqori texnologik sifatga ega pilla hosil qilish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatdi.

XULOSA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida yetishtirilgan pillalarning texnologik xususiyatlari hududning tabiiy-iqlim omillariga bog‘liq holda shakllanadi. To‘g‘ri agrotexnik tadbirlarni qo‘llash, yuqori mahsuldor duragaylardan foydalanish hamda sifatli oziqlantirish orqali yuqori texnologik ko‘rsatkichlarga ega pillalar olish mumkin.

Kelgusida hudud sharoitiga mos ipak qurti zot va duragaylarini yaratish, zamonaviy boqish texnologiyalarini keng joriy etish pillachilik samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nasirillaev B.U., Djumaeva D. Tut ipak qurti pillalarining kalibri va texnologik belgilari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. //Zooveterinariya. – Toshkent, 2015. -№2.40-41-b.
2. Корабельников А., Абдурахманова М. Исследование технологических параметров размотки коконов при различных режимах сублимации живых коконов. // Academic Research in Educational Sciences, 2021. С.587-592.